

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INGILIZ TILINI O'RGANISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI.

Maxmudova Dildora Baxtiyor qizi

University of Business and Science o'qituvchisi

Sobirova Ummigulsun SHerzodbek qizi

University of Business and Science talabasi

Annotation: This article analyzes the psycholinguistic foundations of learning English among preschool-aged children. The study examines the psychological mechanisms involved in language acquisition, particularly the interrelation of perception, memory, thinking, and speech activity. In addition, children's age-related characteristics, their natural ability to acquire language, and the influence of the emotional environment are discussed based on scientific sources. The effectiveness of game-based technologies, repetition, visual materials, and the communicative approach in teaching a foreign language at the preschool stage is substantiated. From a psycholinguistic perspective, it is emphasized that intuitive and natural language acquisition predominates at this age. The results of the article are of significant importance for developing methodological recommendations for the effective organization of English language teaching in preschool educational institutions.

Keywords: psycholinguistics, preschool education, teaching English, language acquisition, speech development, perception, memory, communicative approach, game-based method, age characteristics.

Аннотация: В данной статье анализируются психолингвистические основы изучения английского языка детьми дошкольного возраста. В исследовании рассматриваются психические механизмы процесса усвоения языка, в частности взаимосвязь восприятия, памяти, мышления и речевой деятельности. Также на основе научных источников изучаются возрастные особенности детей, их естественная способность к усвоению языка и влияние эмоциональной среды.

Обосновывается эффективность игровых технологий, повторения, визуальных материалов и коммуникативного подхода в обучении иностранному языку в дошкольный период. С психолингвистической точки зрения подчеркивается, что в данном возрасте преобладает интуитивное и естественное усвоение языка. Результаты статьи имеют важное значение для разработки методических рекомендаций по эффективной организации обучения английскому языку в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: психолингвистика, дошкольное образование, обучение английскому языку, усвоение языка, развитие речи, восприятие, память, коммуникативный подход, игровой метод, возрастные особенности.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini o'rganishning psixolingvistik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda til o'zlashtirish jarayonining psixik mexanizmlari, xususan, idrok, xotira, tafakkur va nutq faoliyatining o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, bolalarning yosh xususiyatlari, tabiiy til o'zlashtirish qobiliyati va emotsional muhitning ta'siri ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Maktabgacha davrda chet tilini o'rgatishda o'yin texnologiyalari, takrorlash, vizual materiallar hamda kommunikativ yondashuvning samaradorligi asoslab beriladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bu yosh davrida tilni intuitiv va tabiiy ravishda egallash jarayoni ustunlik qilishi ta'kidlanadi. Maqola natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini samarali tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, maktabgacha ta'lim, ingliz tilini o'qitish, til o'zlashtirish, nutq rivoji, idrok, xotira, kommunikativ yondashuv, o'yin metodi, yosh xususiyatlari.

Kirish

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish (EFL) ikkinchi til sifatida o'rganish (ESL) dan farq qiladi. Chunki dunyo bo'ylab ba'zi davlatlar borki, ingliz tili ikkinchi rasmiy til hisoblanadi va barcha sohalarda, xususan ta'lim sohasida ham ingliz tilini o'rgatish yoki o'rganish jarayonida mana shu xususiyatga ahamiyat beriladi. Ingliz tilini chet tili sifatida

o'rganish (EFL) ikkinchi til sifatida o'rganish (ESL) dan farq qiladi. Chunki dunyo bo'ylab ba'zi davlatlar borki, ingliz tilini ikkinchi rasmiy til hisoblanadi va barcha sohalarda, xususan ta'lim sohasida ham ingliz tilini o'rgatish yoki o'rganish jarayonida mana shu xususiyatga ahamiyat beriladi. Albatta Prezidentimizning tashabbuslari bilan ushbu ingliz tili chet tili sifatida maktablarda, maktabgacha ta'lim muassassalarida shuningdek oliy ta'lim muassassalarida ham keng tarzda o'qitilib o'rganilib kelinmoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'lim sohasida boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchilar va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerakligi alohida ta'kidlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini jihatida yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5117-son qarorida xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishida ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohasiga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga agentligi (keyingi o'rinlarda- Agentlik) hamda Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlari va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etildi.

Shu sababli bugungi kunda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini erta yoshdan o'qitish ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy, kognitiv va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda tilni o'zlashtirish tabiiy, ong osti jarayonlar orqali amalga oshadi va uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda til o'rganish jarayoni kattalarnikidan farqli ravishda, murakkab qoidalarni yodlashga emas, balki eshitish, kuzatish, taqlid qilish va muloqotga asoslanadi. Shu sababli, ingliz tilini o'qitishda bolaning yosh xususiyatlari, psixologik holati va nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixolingvistik yondashuvlar bu jarayonni ilmiy jihatdan asoslash va samarali metodlarni tanlash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini o'rganish jarayonining psixolingvistik asoslarini tahlil qilish va ushbu jarayonni samarali tashkil etish omillarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya

Psixolingvistikaning tadqiqot obyekti-insonning nutq faoliyati hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

- Tilni idrok etish (eshitish va o'qitish orqali)
- Nutqni tushunish,
- Nutqni ishlab chiqish (gapirish va yozish),
- Til birliklarining xotirada saqlanishi va faollashuvi ,
- Nutq jarayonidagi psixologik omillardan iborat .

Maktabgacha yoshdagi bolalarda psixolingvistikada tadqiqot etish ularda asosan eshitish hamda nutqni idrok etish asosiy maqsad bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini o'rgatish asosan eshitish hamda ko'rish orqali vujudga keladi. Maktabgacha yoshdgi bolalarda psixolingvistikaning asosiy o'qitish metodlari quyidagi omillardan iborat:

- O'yin metodi
- O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va harakatli mashqlar nutq faolligini oshiradi.
- Audiovizual metod
- Qo'shiqlar, she'rlar, multfilmlar va audio materiallar orqali til birliklari bolaning xotirasida mustahkamlanadi.
- Takrorlash va taqlid metodi
- Bolalar yangi so'z va iboralarni kattalarning nutqiga taqlid qilish orqali o'zlashtiradilar. Bu metod fonetik va intonatsion ko'nikmalarni shakllantirishda samaralidir.
- Situativ metod

•Soʻz va iboralar aniq vaziyatlar asosida oʻrgatiladi. Masalan, ovqatlanish, oʻyinchoqlar, ranglar va kundalik faoliyat bilan bogʻliq vaziyatlar.

Tadqiqot nazariy-tahliliy yoʻnalishda olib borildi. Psixolingvistika, bolalar psixologiyasi va ikkinchi tilni oʻzlashtirishga oid ilmiy manbalar tizimli ravishda oʻrganildi va umumlashtirildi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy qarashlar solishtirilib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos boʻlgan konsepsiyalar ajratib olindi.

Asosiy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, maktabgacha taʼlim tizimida qoʻllanilayotgan til oʻqitish yondashuvlari psixolingvistik nuqtai nazardan baholandi. Tadqiqot empirik tajribaga emas, balki mavjud ilmiy-nazariy manbalarni chuqur tahlil qilishga asoslandi.

Muhokama va natijalar

Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini oʻrganish jarayoni bir nechta muhim psixolingvistik omillar bilan belgilanadi.

Avvalo, biologik rivojlanish omili muhim hisoblanadi. Ushbu yoshda bolaning miyasi til birliklarini tez va oson qabul qilish xususiyatiga ega boʻlib, fonetik va intonatsion jihatdan toʻgʻri nutqni shakllantirish imkoniyati yuqori boʻladi. Bu holat ingliz tilini tabiiy talaffuz bilan oʻzlashtirishga zamin yaratadi.

Ikkinchi muhim omil — bolaning tugʻma til qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar grammatik qoidalarni tushuntirishsiz ham nutqiy tuzilmalarni oʻzlashtira oladi. Ular eshitilgan nutq asosida ichki til tizimini shakllantirib, soʻz va gaplarni faol qoʻllay boshlaydi.

Uchinchi omil sifatida til muhitining sifati ajralib turadi. Qiziqarli, tushunarli va takroriy til materiallari bolalarning tilga boʻlgan qiziqishini oshiradi. Oʻyinlar, qoʻshiqlar, sheʼrlar va koʻrgazmali vositalar orqali berilgan ingliz tili mashgʻulotlari yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, ijtimoiy muloqot ham muhim rol oʻynaydi. Kattalar va tengdoshlari bilan olib borilgan sodda muloqotlar bolaning nutq faolligini oshiradi va ingliz tilidan amaliy foydalanish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Olingan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy, grammatikaga asoslangan yondashuvlar yetarli samara bermasligini ko‘rsatadi. Bu yoshda bolalar abstrakt tushunchalarni qabul qilishga hali to‘liq tayyor bo‘lmaydi, shu sababli dars jarayoni tabiiy va erkin muhitda tashkil etilishi lozim.

Psixolingvistik yondashuvga asoslangan ta’lim bolalarda tilni qo‘rquvsiz va bosimsiz o‘zlashtirish imkonini beradi. Rag‘batlantirish, ijobiy munosabat va muloqotga yo‘naltirilgan faoliyatlar bolaning nutqiy faolligini oshiradi. Til o‘rganish jarayonida xatolarga ijobiy munosabatda bo‘lish va ularni tabiiy jarayon sifatida qabul qilish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda tarbiyachi va o‘qituvchilarning psixolingvistik bilimga ega bo‘lishi ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'rganish psixolingvistik jihatidan eng samarali davrlardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu bosqich biologik, kognitiv va ijtimoiy omillar bilan birga uyg'unlashib, tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirish uchun eng qulay davr biri hisoblanadi.

Psixolingvistik asoslarida tashkil etilgan chet tili mashg'ulotlari bolalarning nutqini ijobiy ravishda yaxshilashga va tilni tezroq rivojlantirishga eng yaxshi poydevor yaratadi.

Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida chet tilini o'qitishda yosh xususiyatlariga mos bo'lgan, rivojlantiruvchi o'yinlar va keng muloqotga asoslangan metodlardan foydalanish tavsiya etilad.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son
2. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Chomsky, N. Knowledge of Language: Its Nature, Origin, and Use. New York: Praeger.
4. Lenneberg, E. H. Biological Foundations of Language. New York: Wiley.
5. Krashen, S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press.

6. Lightbown, P. M., & Spada, N. How Languages Are Learned. Oxford: Oxford University Press.
7. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Pinter, A. Teaching Young Language Learners. Oxford: Oxford University Press.
9. Vygotsky, L. S. Mind in Society. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
11. Леонтьев, А. А. Психоллингвистика. Москва: Смысл.